

# **TTPU da uning qoshidagi Akademik Litsey o'quvchilari uchun «Rektor soati» o'tkazildi.**

Yig'ilishda 250 ga yaqin bitiruvchi bosqich o'quvchilari qatnashdi. Suhbat davomida, Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti dotsenti M. Z. Turg'unov Materialshunoslik bo'yicha master klass o'tdilar. So'ng, universitet Rektori Inoyatxodjaev J. Sh., Moliyaviy-iqtisodiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha 1-prorektor Karimov A. A. va universitet Marketing bo'lim boshlig'i Djo'raev O. M. universitetda amalga oshirilayotgan ishlar, yangiliklar, mavjud fakultetlar, o'qishga qabul qilish tartibi, universitetda yaratilayotgan ixtirolar, yaratilgan imkoniyatlar, universitet erishgan yutuqlari to'g'risida barcha ma'lumotlarni berib o'tishdi va o'quvchilarni qiziqtirgan barcha savollarga javob berishdi.

O'ylaymiz-ki, ushbu uchrashuv litsey o'quvchilari uchun universitet faoliyati bilan tanishishga va litsey faoliyatini yanada kuchaytirish masalalarini muhokama qilish uchun ajoyib imkoniyat bo'ldi.